

“Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonun imzolandi

Qonun bilan pedagoglarning **huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish** tamoyillari belgilandi.

Pedagogning **huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati** va **ishchanlik obro'si** davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi.

Qonunga ko'ra, jumladan, quyidagilar **taqiqlanadi**:

- pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga **jalb qilish**;
- pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, shu jumladan bitiruvchilarning bandligi ta'minlanganligi haqidagi **hisobotlarni shakllantirishini** va **taqdim etishini talab qilish**;
- pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan ish haqidan uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun **mablag' ushlab qolish**.

Manba: O'RQ-901-son, 01.02.2024-y.